Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi.....	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi.....	1268
Qobilov Muhammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash.....	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	



TASHQI VA ICHKI OMILLAR TA'SIRINI HISOBGA OLGAN HOLDA KORXONA MOLIYAVIY HOLATI BARQARORLIGINING TAHLILI

Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich

orcid.org/0009-0005-7014-7766

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamon ichki va tashqi omillarining ta'siri ostida korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilish masalalari yoritilgan. Global iqtisodiy jarayonlar fonida axborot va raqamli iqtisodiyotning tez sur'atlarda rivojlanayotgani hamda uning aloqa va axborot xizmatlari sohasida qanday ko'rinish olayotgani statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Maqolada 2018–2023-yillar oralig'ida O'zbekiston aloqa sohasida kuzatilgan tarkibiy o'zgarishlar, ayniqsa internet va mobil xizmatlar ulushining oshgani, shuningdek, teleradioeshittirish, kompyuter xizmatlari va telekommunikatsiya sohasidagi daromadlarning ko'paygani ko'rsatib berilgan.

Jadval asosidagi tahlillar aloqa xizmatlari hajmining izchil o'sishini namoyon etadi. Bu holat zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishi, raqamli infratuzilmaning kengaytirilishi hamda xizmatlar sifati va hajmining ortib borayotganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, maqolada masofaviy ish tizimi, bilim va axborotning yangi iqtisodiy muhitdagi o'rni ham e'tiborga olingan.

Kalit so'zlar: moliyaviy barqarorlik, aloqa sohasi, axborot iqtisodiyoti, raqamli xizmatlar, internet infratuzilmasi, telekommunikatsiya, masofaviy ish, axborot texnologiyalari, statistika tahlili, korxona daromadi.

Abstract: This article analyzes the financial stability of enterprises under the influence of contemporary internal and external factors. Against the backdrop of global economic processes, the development trends of the information and digital economy and their impact on the telecommunications and information services sector in Uzbekistan are examined using statistical data from 2018 to 2023.

The analysis reveals a significant increase in the share of internet and mobile services, as well as growth in revenues in broadcasting, computer, and telecommunication services. The study emphasizes that the expansion of digital infrastructure, implementation of modern technologies, and improvements in service quality have played a major role in the sustainable growth of the communication sector.

Key words: financial stability, communication sector, information economy, digital services, internet infrastructure, telecommunications, remote work, information technologies, statistical analysis, enterprise income.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы анализа финансовой устойчивости предприятий с учётом влияния современных внутренних и внешних факторов. На фоне глобальных экономических процессов анализируются темпы развития информационной и цифровой экономики, а также их влияние на сферу связи и информационных услуг в Узбекистане на основе статистических данных за 2018–2023 годы.

Проведённый анализ показывает рост удельного веса интернет- и мобильных услуг, а также увеличение доходов в таких секторах, как телерадиовещание, компьютерные и телекоммуникационные услуги. Акцент сделан на том, что развитие цифровой инфраструктуры, внедрение современных технологий и повышение качества услуг сыграли важную роль в устойчивом росте сектора связи.

Ключевые слова: финансовая устойчивость, сфера связи, информационная экономика, цифровые услуги, интернет-инфраструктура, телекоммуникации, дистанционная работа, информационные технологии, статистический анализ, доход предприятия.

KIRISH

So'nggi yillarda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va raqamli iqtisodiyotning kengayishi korxona va tashkilotlar faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, tashqi iqtisodiy tahdidlar, ichki resurslar cheklanganligi, inflyatsiya jarayonlari va moliyaviy bozorlarning o'zgaruvchanligi sharoitida korxonalarning moliyaviy holatini to'g'ri baholash hamda ularning barqarorligini ta'minlash dolzarb masalaga aylangan.



Bugungi kunda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, resurslardan oqilona foydalanish va kapital aylanish tezligini ta'minlash orqali korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, axborot iqtisodiyotining o'sishi fonida aloqa va axborot xizmatlari sektori yetakchi tarmoqlardan biriga aylanib bormoqda. Internet tarmog'i orqali taqdim etilayotgan xizmatlar, masofaviy ish shakllarining kengayishi, mobil aloqa va raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan yangi iqtisodiy munosabatlar korxonalar moliyaviy natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur maqolada aynan shu omillar kontekstida aloqa va axborot xizmatlari sohasidagi korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. 2018–2023-yillar davomida jamg'arma daromadlari, xizmatlar ulushi, investitsion oqimlar va texnologik yondashuvlar asosida soha rivojining asosiy yo'nalishlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari esa korxona barqarorligini ta'minlash, xizmatlar sifatini oshirish va raqamli transformatsiyani chuqurlashtirishda nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy barqarorlik – bu korxonaning moliyaviy holati va uning operatsion samaradorligining eng muhim ko'rsatkichidir. Buning sababi shundaki, bozorning o'zaro ta'siri, globallashuv va iqtisodiy beqarorlik evolyutsiyasi sharoitida kompaniya rahbariyati o'z faoliyati xavfsizligini ta'minlashi va rivojlanish barqarorligini kafolatlab borishi lozim.

Iqtisodiy barqaror kompaniya, boshqalardan farqli o'laroq, investitsiyalar uchun jozibador obyekt bo'lib, sheriklar, iste'molchilar va yetkazib beruvchilar o'rtasida ishonch uyg'otadi va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Gorksin A.G.ning fikricha, kompaniya faoliyatiga tashqi va ichki muhitning turli omillari ta'sir qiladi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu omillarning ko'plab tasniflari mavjud: kelib chiqishi (ichki va tashqi), natijaning ahamiyati (birlamchi va ikkilamchi), tarkibi (oddiy va murakkab), ta'sir qilish muddati (doimiy va vaqtinchalik) bo'yicha.

Har qanday korxona bozorda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan birgalikda faoliyat yuritishini hisobga olsak, bu dinamika uning faoliyati samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois, korxonaning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiluvchi tashqi omillarni o'rganish muhim ahamiyatga ega, deya ta'kidlaydi A. Vasser va N. Kalaytan.

Kirillovning fikricha, tashqi omillar kompaniyaning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiluvchi tashqi muhitning asosini tashkil etadi. Ushbu muhit tarkibi bo'yicha tasniflanmagan bo'lib, ikkita toifadagi omillarni o'z ichiga oladi: to'g'ridan-to'g'ri va ichki ta'sir omillari. Birinchi guruh elementlari kompaniya faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va raqobatchilar, iste'molchilar hamda tovar yetkazib beruvchilarni qamrab oladi. Ikkinchi guruhga esa kompaniya faoliyatiga bilvosita ta'sir ko'rsatadigan elementlar kiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda korxonaning moliyaviy holati barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi va ichki omillarni aniqlash hamda ularni tizimli tahlil qilish asosiy maqsad qilib belgilandi. Metodologik yondashuv sifatida empirik va statistik tahlil, dinamik qiyoslash, grafik tasvirlash, tarkibiy tahlil va deduktiv yondashuv usullari qo'llanildi.

Tadqiqotda foydalanilgan asosiy ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, xalqaro tashkilotlar (ITU, World Bank) ma'lumotlari hamda aloqa va axborotlashtirish sohasida faoliyat yuritayotgan yirik milliy kompaniyalar hisobotlari xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida axborot bilan ta'minlash va uni qayta ishlash bilan bog'liq yangi biznes tarmoqlari paydo bo'lmoqda. Aynan shu tarmoqlar eng tez o'sayotgan sohalardan biri sifatida prognoz qilinmoqda.

Yangi axborot iqtisodiyotida tez orada "xomashyo" va "qayta ishlash" tarmoqlariga bo'linish ehtimoli mavjud. "Xomashyo sektori" – bu internet orqali yetkazib beriladigan qayta ishlanmagan axborotlar konidir. "Qayta ishlash tarmog'i" esa ushbu ma'lumotlarni axborotga, axborotlarni esa bilimga aylantiradigan ixtisoslashgan strukturalardir.

Ko'plab axborot saytlariga kirish allaqachon bepul amalga oshirilmoqda. Ammo aynan shu ma'lumotlar asosida tayyorlangan tahliliy mahsulotlarning narxi bir necha ming dollarga yetadi. Jamiyatda aylanayotgan axborot oqimining kuchayishi bilan axborotni qayta ishlash markazlarining ahamiyati ortib bormoqda. Endi zamon talabi – energiyani ko'p talab qiluvchi tarmoqlardan "axborot talab qiladigan" xizmat ko'rsatish va jarayonlarga o'tishdir.



Yangi tadbirkorlik yo'nalishlari yangi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qilmoqda. Masalan, birgina AQShning o'zida 2021-yil 23 million kishi internet iqtisodiyotida band bo'lgan. Raqamli iqtisodiyot jahon yalpi ichki mahsulotining 15 foizdan ortig'iga teng bo'lib, so'nggi 15 yil ichida jami YaIMdan ikki yarim barobar tezroq o'sdi.

Shu bilan birga, mamlakatlarda savodxonlik va daromad darajasining pastligi, geografik cheklavlar, texnologiyadan foydalanish motivatsiyasining yo'qligi, texnologiyaga jismoniy kirish imkoniyatining mavjud emasligi va raqamli savodsizlik kabi omillar raqamli tafovutga olib kelmoqda. Natijada butun dunyo bo'ylab qariyb 2,9 milliard odam (taxminan 37 foiz), ayniqsa ayollar va qizlar telefon, kompyuter yoki internetga kirish imkoniyatiga ega emas (ITU, World Bank).

Masofaviy ish tizimining rivojlanishi sog'lig'i tufayli harakatlanish imkoniyati cheklangan odamlarning turli guruhlarini ish bilan ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bilim va axborot esa korxonada boshqaruvning asosiy obyekti aylanmoqda. Bilim va axborot – yangi iqtisodiyotning asosi hisoblanadi. Uning yetakchilari – axborotni qayta ishlaydigan va bilimlarni boshqalarga nisbatan tezroq hamda sifatliroq almashadigan tashkilotlardir (1-jadval).

1-jadval. Aloqa korxonalarining aloqa xizmatidan tushgan tushumi tarkibi (foizda)¹.

№	Ko'rsatkichlar	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y	2023-y
	Aloqa - jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
1	pochta	2,4	2,9	2,8	3,1	3,1	3,5
2	telegraf	0,02	0,02	0,01	0,03	0,02	0,02
3	maxsus aloqa	0,1	0,1	0,1	0,2	0,2	0,2
4	shaharlararo va xalqaro telefon	16,1	14,2	13,7	12,4	11,4	10,8
5	shahar va qishloq joylardagi telefon	1,2	1,4	1,3	1,0	0,8	0,7
6	radio chastotalarni ro'yxatga olish, nazorat va himoya qilish	1,3	1,4	1,8	2,1	2,1	2,2
7	mobil	49,0	43,0	39,2	38,2	37,3	35,8
8	"Internet" tarmog'i	22,9	26,0	30,2	34,1	35,9	37,6
9	ma'lumot uzatish tarmog'i	4,8	8,5	7,9	6,3	6,3	6,1
10	televideniye dasturlarini uzatish va qabul qilish	1,6	1,6	1,8	1,8	1,7	1,8
11	radio dasturlarini uzatish va qabul qilish	0,2	0,2	0,2	0,2	0,1	0,1
12	aloqaning boshqa turlari	0,4	0,7	1,0	0,6	1,1	1,1

Yuqoridagi 1-jadvalga asosan, aloqa korxonalarining pochta aloqasi ulushi 2018-yildagi jami ko'rsatkichga nisbatan 2,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ulush 1,3 barobar oshib, 3,5 foizga yetganini ko'rish mumkin. Bu davr oralig'ida global pandemiya munosabati bilan mazkur sohaning rivojlanishi kuzatilganini asosiy sabab sifatida ko'rsatish mumkin.

Maxsus aloqa xizmati 2018-yilda 0,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 0,2 foizga yetgan. Radio chastotalarni ro'yxatga olish, nazorat qilish va himoya qilish xizmatlari 2018-yilda 1,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 0,9 foizga oshib, 2,2 foizni tashkil qilgan. Bu o'zgarishlar o'ta keskin bo'lmaganini ta'kidlash mumkin.

Internet tarmog'i bo'yicha esa 2018-yilda 22,9 foiz ulush qayd etilgan bo'lib, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 37,6 foizga yetgan. Bu 14,7 foizlik o'sish, ayniqsa, respublikamizda aloqa sohasiga qaratilayotgan jiddiy e'tibor natijasi sifatida talqin qilinadi. Televideniye dasturlarini uzatish va qabul qilish xizmatlari 2018-yilda 1,6 foiz ulushga ega bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich biroz oshib, 1,7 foizni tashkil etgan (2-jadval).

¹ Muallif hisob-kitoblari (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida).

2-jadval. Aloqa korxonalarining aholiga aloqa xizmatidan tushgan tushumi tarkibi (foizda)².

Ko'rsatkichlar	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y	2023-y
Aloqa – jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
pochta	0,8	1,0	0,8	1,1	0,9	1,1
telegraf	0,01	0,0	0,003	0,004	0,002	0,002
shaharlararo va xalqaro telefon	0,3	0,2	0,04	0,03	0,02	0,02
shahar va qishloq joylardagi telefon	1,1	1,3	1,1	0,8	0,5	0,6
mobil	66,7	59,9	55,1	51,8	49,8	46,9
ma'lumot uzatish tarmog'i "Internet"ni qo'shgan holda	29,8	36,3	41,7	45,0	47,3	49,8
televideniye dasturlarini uzatish va qabul qilish	1,3	1,3	1,3	1,3	1,2	1,3
aloqaning boshqa turlari	0,001	0,0	0,0	0,0	0,2	0,2

2-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, pochta aloqasi sohasida ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha 2018-yilda 0,8 foiz daromadga erishilgan bo'lsa, 2023-yil yakunlariga ko'ra bu ko'rsatkich 1,1 foizga yetgan. Ushbu sohada daromad oz miqdorda bo'lsa-da oshganini ko'rish mumkin, biroq o'tgan yillar kesimida keskin o'sish kuzatilmagan.

Ma'lumotlar uzatish tarmog'i (shu jumladan internet) xizmatlaridan olingan daromadlar 2018-yilda 29,8 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 20,0 foizga oshib, 49,8 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichdagi sezilarli o'sish O'zbekiston Respublikasini elektron hukumat tizimiga o'tkazish, aholini internet tarmog'i bilan keng qamrab olish borasidagi tashabbuslar bilan izohlanadi.

Shuningdek, televideniye dasturlarini uzatish va qabul qilish xizmatlarida 2018-yilda 1,3 foiz daromad qayd etilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich o'zgarmay, yana 1,3 foizni tashkil qilgan.

Aloqaning boshqa xizmat yo'nalishlarida esa 2018–2023-yillar davomida sezilarli darajada o'zgarish qayd etilmagan (3-jadval).

3-jadval. Ko'rsatilgan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi (amaldagi narxlarda, mlrd. so'm)³.

Ko'rsatkichlar	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y	2023 -y
Jami	10332,6	10891,7	13852,3	17755,1	24508,1	35261,9
noshirlik xizmatlari	584,1	617,8	741,3	836,2	1600,7	2289,7
televideniye va dasturlari kino-videofilmlar ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar qilish bo'yicha xizmatlar	74,9	123,2	89,5	169,8	244,7	332,1
teleradioeshittirish va dasturlar tuzish bo'yicha xizmatlar	377,5	439,3	650,9	696,7	833,1	1166,1
telekommunikatsiya xizmatlari	8389,1	8624,0	10233,7	11957,3	14660,7	17642,1
kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	666,1	698,2	1428,2	2721,5	4652,9	9832,6
axborot sohasidagi xizmatlar	240,9	389,2	708,7	1373,6	2516,0	3999,2

3-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, noshirlik xizmatlari ulushi 2018-yilda 584,1 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 1705,6 mlrd so'mga ortib, 2289,7 mlrd so'mni tashkil etgan. Tadqiqot obyektimizdan kelib chiqqan holda muhim bo'lgan ko'rsatkichlar – televideniye dasturlari, kino va videofilmlar xizmatlari, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo'yicha xizmatlar – 2018-yilda 74,9 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 257,2 mlrd so'mga oshib, 332,1 mlrd so'mga yetgan.

Shuningdek, teleradioeshittirish va dasturlar tuzish bo'yicha xizmatlar 2018-yilda 377,5 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 788,6 mlrd so'mga oshib, 1166,1 mlrd so'mga yetgan. Bu holatga asosiy sabab sifatida respublikamizda aloqa sohasiga qaratilayotgan e'tibor, xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikning

² Muallif hisob-kitoblari (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida).

³ Muallif hisob-kitoblari (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida).



kengaygani va BPO (biznes jarayonlarini outsorsing qilish) tizimini ommalashtirish borasidagi ishlarning natijalarini ko'rsatish mumkin.

Telekommunikatsiya xizmatlarida 2018-yilda 8389,1 mlrd so'm daromad qayd etilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 9253,0 mlrd so'mga oshib, umumiy daromad 17642,1 mlrd so'mni tashkil etgan. Bunday natijalarga erishishga asosiy omil sifatida respublika miqyosida aloqa sohasida amalga oshirilgan islohotlar, zamonaviy texnika va texnologiyalarning xorijdan olib kirilib samarali joriy etilishi ko'rsatiladi.

Aloqa sohasida 2018-yilda jami 10332,6 mlrd so'm daromad qayd etilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 24929,3 mlrd so'mga oshib, natijada umumiy daromad 35261,9 mlrd so'mni tashkil etgan. Ushbu o'sish, bir tomondan, sohaga qaratilgan tizimli e'tiborni ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, xizmatlar sifatining oshishiga ham turtki bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida aloqa va axborotlashtirish sohasining salmoqli sur'atlarda rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va internet xizmatlarining kengayishi korxonalarning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, 2018–2023-yillar davomida mobil aloqa, internet tarmog'i va kompyuter xizmatlaridan tushgan daromadlarning sezilarli darajada oshgani, axborot iqtisodiyoti elementlarining real sektorda faol qo'llanilayotganidan dalolat beradi.

Statistik ma'lumotlarga asoslangan tahlillar korxonalarning daromad bazasi tarkibida aynan raqamli xizmatlar ulushining yildan-yilga ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, internet tarmog'i orqali xizmat ko'rsatish, masofaviy ish tizimi va bilimga asoslangan boshqaruv modellarining joriy qilinishi korxona faoliyatini samarali tashkil etish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini bermiqda.

Tadqiqot natijalariga asoslangan amaliy takliflar:

- Aloqa va axborot xizmatlari infratuzilmasini yanada kengaytirish, ayniqsa, chekka hududlarda internet va mobil aloqa xizmatlarini joriy etish korxona faoliyatini barqarorlashtirishda muhim omil hisoblanadi.

- Korxonalarda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish: bu, moliyaviy hisobotlarning avtomatlashtirilishi, xizmatlar diversifikatsiyasi va xarajatlarning optimallashtirilishini ta'minlaydi.

- Masofaviy ish imkoniyatlaridan kengroq foydalanish: ijtimoiy zaif guruhlarni (ayollar, nogironlar) ishga jalb qilish orqali inson resurslaridan samarali foydalanishni kuchaytiradi.

- Korxonalarning moliyaviy barqarorligini monitoring qilish tizimini takomillashtirish: avtomatlashtirilgan tahliliy modullar va moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili asosida qarorlar qabul qilish tizimini ishlab chiqish zarur.

- Axborot savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish: xodimlarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish va texnologiyalarni joriy qilish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot va aloqa xizmatlarining jadal rivojlanishi korxona faoliyatining moliyaviy asoslarini mustahkamlashda muhim rol o'ynamoqda. Shu sababli, zamonaviy texnologiyalarni keng qo'llash, axborot resurslaridan samarali foydalanish va xizmatlar sifatini oshirish orqali korxona barqarorligini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni.
2. Бухалков М.И. Внутрифирменное планирование. – М.: ИНФРА-М, 2017. – 392 с.
3. Горский А.Г. Факторы влияния на финансовую устойчивость корпоратии // Проблемы современной науки и образования. 2017. № 6 (88). С. 37-42
4. Вассер А.Н., Калайтан Н.А. Исследование внутренних и внешних факторов, влияющих на финансовую устойчивость предприятий и корпоратий // Наука, образование, бизнес. 2015. С. 28-32.
5. Кириллова Т.Н. Исследование внутренних и внешних факторов, влияющих на финансовую устойчивость предприятий и корпоратий // Проблемы экономики. 2013. № 6. С. 31-34
6. Жигунова О.А. Теория и методология анализа и прогнозирования экономического потенциала предприятия: монография. – М.: ИД "Финансы и кредит", 2018. – 140 с.
7. Райзберг Б.А. Государственное управление экономическими и социальными процессами. – М.: ИНФРА-М, 2018. – 384 с.
8. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi rasmiy sayti: <https://mitc.uz>
9. World Bank Open Data. Digital Economy Indicators. <https://data.worldbank.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>